




**ANDIJON VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**ANDIJON VILOYATINING SANOAT ISHLAB
CHIQRISHI 2024-YIL YANVAR-NOYABR OYLARI**





DASTLABKI MA'LUMOT

**Tel.: 74 228-30-42
www.andstat.uz**



Andijon viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

(2024-yil 1-dekabr holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 5 064 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda. Shundan 1 376 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 27,1 %) Andijon shahriga, 582 tasi (11,4 %) Andijon tumaniga, 414 tasi (8,1 %) Asaka tumaniga, 373 tasi (7,3 %) Shahrixon tumaniga va 310 tasi (6,1 %) Xo'jaobod tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami faoliyat yuritayotgan korxonalarda sanoat korxonalarining ulushi




Andijon viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari


Sanoat- bu, xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 76 906,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 107,7% ni tashkil etdi.


Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.



Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-noyabr, mlrd. so'mda




Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-noyabr, % da




Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Andijon viloyatida 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi 22 487,4 ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich aholi ehtiyojlari ishlab chiqarish mahsulotlariga nisbatan o'sib borayotganini ko'rsatadi.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 76 906,3 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 107,7 % ni tashkil etdi.



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Asaka tumani (52,3 %), Andijon shahar (14,5 %), Xonobod shahar (3,8 %), Qo'rg'ontepa tumani (3,5 %) hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI Baliqchi tumanida (110,8 %), Buloqboshi tumanida (109,6 %), Ulug'nor tumanida (108,2 %) Izboskan tumanida (107,8 %), kuzatildi.




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 247,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,6 % ini tashkil etdi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-noyabr, mlrd. so'mda*



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-noyabr, % da*





Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat - bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 74 654,4 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 97,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-noyabr mlrd. so'mda




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-noyabr % da




Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Neft




Yumshoq bug'doy va spelta uni




Paxta tolasi




Paxta chigiti




Paxtadan yigirilgan ip




Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar




Yengil avtomobillar




Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz



80 % dan kam bo'lmagan etil spirti



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqarilgan sanoat tarkibida 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023-yilning yanvar-noyabr oylarida 0,1 %), 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali – 66,1 % (2023-yil yanvar-noyabr oylarida o'rta-yuqori texnologiyali 71,5 %), 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida o'rta-quyi texnologiyali – 2,8 % (2023-yil yanvar-noyabr oylarida o'rta-quyi texnologiyali 2,3 %), 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida quyi texnologiyali 26,1 % (2023-yil yanvar-noyabr oylarida quyi texnologiyali 26,1 %) ni tashkil etgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Andijon viloyatida
yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish
(2024-yilning yanvar-noyabr oylarida)

Yengil avtomobillar – umumiy yoki “maxsus yengil avtomobillar”ga bo‘linib, 4 kishigacha mo‘ljallangan transport vositasi.

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2024-yilning yanvar-noyabr oylarida 149 790 dona “Cobalt” (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 143,2 % ga oshdi), 12 837 dona “Gentra” (17,3 % ga kamaydi), 40 718 dona “Tracker” (99,9 % ga oshdi), 29 094 dona “Onix” (124,7 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



“Cobalt”

2024-y.

149 790 dona

2023-y.

104 575 dona

2022-y.

90 239 dona



“Gentra”

2024-y.

12 837 dona

2023-y.

74 163 dona

2022-y.

80 478 dona



“Tracker”

2024-y.

40 718 dona

2023-y.

40 744 dona

2022-y.

4916 dona



“Onix”

2024-y.

36 408 dona


2023-y.

29 200 dona

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,1 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 95,8 % va ishlab chiqarish hajmi 64,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,9 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 1 324,9 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 6,2 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 114,1 % va ishlab chiqarish hajmi 4 622,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



yanvar-noyabr
FHI, % da




yanvar-noyabr
mlrd. so‘mda


Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 159,7 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 132,4 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



yanvar-noyabr
FHI, % da




yanvar-noyabr
mlrd. so‘mda

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 9,7 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,8 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 7 252,1 mlrd. so'mga to'g'ri keladi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,4 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,3 % va ishlab chiqarish hajmi 8 482,3 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 129,6 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 933,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,00 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 130,3 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 17,2 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 124,5 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 617,4 mlrd. so'm kuzatildi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 181,4 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 1055,9 mlrd. so'm ekani kuzatildi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish

Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish – “toza metallardan aralashmasiz” buyumlar ishlab chiqarish (ehtiyot qismlari, konteynerlar va moslamalar), odatda statsionar, faqat elektr, elektron yoki optik asboblari uchun radiopriborlar, uzatish moslamalari kabi, ko‘rsatilgan metallar (ba’zida boshqa metallar bilan) va ancha murakkab birikmalar qotishmalarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 88,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 622,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, tirkamalar va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.

2024-yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 62,6 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,5 % ga oshdi, ishlab chiqarish hajmi 46 728,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.





Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 724,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,1 % ini) tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-noyabr mlrd. so'mda



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-noyabr % da





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 180,0 mlrdso'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % iga) to'g'ri keldi.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-noyabr mlrd. so'mda



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Sanoat ishlab chiqarishi FHI, yanvar-br % da



Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 20 762,4 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 27,0 % ni tashkil etdi.



Andijon sh.	20,8
2 308,8	
Xonobod sh.	21,9
638,6	
Oltinkoʻl	27,4
417,3	
Andijon	57,9
809,6	
Baliqchi	71,5
1 765,2	
Boʻston	48,7
287,9	
Buloqbohi	40,8
363,1	
Jalaquduq	47,8
706,8	
Izboskan	80,7
1 024,8	
Ulugʻnor	70,3
461,1	
Qoʻrgʻontepa	51,3
1 372,4	
Asaka	1,1
448,5	
Marhamat	37,8
350,2	
Shahrixon	72,0
1 110,2	
Paxtaobod	17,2
170,7	
Xoʻjaobod	57,2
1 431,5	

● mlrd. soʻmda ● Ulushi, % da